

## FRAZEOLOGIYA VA FRAZEODIDAKTIKANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Xamidova Farida Fazliddinovna***Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti*

Phone number: +998972890325

**Annotation**

Phraseology and phraseolodidactics, phraseodidactics in the twentieth century, classification of phraseological units, educational stages of phraseodidactics.

**Key words**

Terms of phraseodidactics, Reference phraseological units, Structural phraseological units, communicative phraseological units, X.X. century Lyumberg.of language tourism.

**Аннотация**

Frazeologiya va frazeolodidaktika, XX asrda frazeodidaktika, frazeologik birliklarni tasniflash, frazeodidaktikaning o'qitish bosqichlari.

**Калип сўзлар**

Frazeodidaktikaning atamasi, Referent frazeologik birliklar, Strukturaviy frazeologik birliklar, kommunikativ frazeologik birliklar, X.X. asrda Lyuberg.

Bugungi kunda ko'plab xalqaro aloqalarning rivojlanishi tufayli chet tillarni bilish inson va jamiyat hayotida muhim rol oynaydi. har qanday tilni o'rganishda lugat muhim rol oynaydi. Boshqacha qilib aytganda, lugat kommunikativni shakllantirish uchun qurilish materialidir.

Insonning chet tilini mukammal bilishning isboti nafaqt shakllangan kommunikativ kompetensiya, shuningdek, o'rganilayotgan til frazeologik fondini bilishdir. Frazeologik birliklar asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish hisoblanadi. Bu nafaqt chet tilini puxta o'zlashtirishga, balki, murakkab o'ziga xos o'rganilayotgan tilning madaniyatini tushunishga ham imkon beradi. Chet tillarni o'qitish jarayonida frazeologik birliklarning keng qo'llanishi «frazeodidaktika» degan yangi fanning shakllanishiga olib keldi. Frazeodidaktika atamasini birinchi marta nemis tilshunosi Peter Kun fanga kiritgan. Isabel Gonzales Rey esa frazeodidaktikaga qo'yidagicha ta'rif keltirgan: «Frazeodidaktika-bu xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida frazeologik birliklarni o'rganishdan iborat fan». Frazeodidaktika frazeologiyaning didaktikasi sifatida qaralsada, lekin ikki terminning ozaro farqlari mavjud, va biz bu farqlarni bilishimiz uchun frazeologiyaning paydo bo'lgan davridan toki rivojlangan davrigacha bilishimiz shart.

Darhaqiqat, Frazeodidaktikaning kelib chiqishi glotodidaktika bilan bo'g'liqdir.

Frazeologiyaning mazkur sohasi chet tillarni o'qitishda leksikologiya va metodika bilan bir qatorda muhim ahamiyatga ega degan tushunchani T.N. Fedulenkov fanga kiritgan.

Umuman olganda bu sohaning asosiy maqsadi tildagi frazeologik birliklarni o'qitshtirish va ularni tushuntirishdan iborat. V. Flyasher aytganidek, "xorijiy tilni o'rganish uchun uning frazeologiyasini minimal darajada o'rganish shart".

Yevropada frazeodidaktika sohasi bo'yicha P. Kyun, X.X. Lyuger, B. Votyak kabi qator olimlar izlanishlar olib borgan. Lekin shunga qaramasdan, lingvistik frazeologiya sohasi bo'yicha izlanishlar soni frazeodidaktikaga nisbatan rivojlandi. Frazeodidaktika insoniyatning mehnat jarayonlari, urf-odatlari, madaniyati va tarixi bilan aloqador bo'lgan frazeologik birliklar, maqollar va hikmatli so'zlarni o'rganadigan frazeologiyaning muhim aspekti sifatida qaralmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek bu bo'lim rivojlanayotgan sohalar qatorida kiritilgan, shundan kelib chiqib T. Kyun frazeodidaktikani uyqudag'i go'zalga taqqoslaydi.

X.X. Lyuger bo'yicha frazeodidaktikaning asosiy maqsadi bu- "frazeologik birliklarning shakli to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lism, konteksta frazeologik birliklarni farqlay olish, frazeologik birliklarni ekvivalenti bilan almashtra olish, frazeologik birlikni mazmunini tushunish va undan foydalana olishdadir".

Darhaqiqat, xorijiy tilni o'rganishda albatta uning frazeologik birliklarni ham bilish juda muhim deyilgan. Tadqiqotlar natijasida shu aniqlandiki, bir tilni o'rganishda 400 ta frazeologik birliklarni ham o'rganish lozim ekan.

Frazeologik kompetensiyani shakllantirish uchun chet tillarni o'qitish metodikasida uch darajali tamoyil ishlab chiqilgan bo'lib, u P. Kyun tomonidan takomillashtirilgan: "matnda frazeologik birliklarni ajratish, ularning mazmunini yoritish, o'zlashtirish va ularni mustahkamlash har xil mashqlar yordamida va muloqotda ulardan foydalanish". Biroq, amaliyat shuni ko'rsatadiki, ko'rsatilgan barcha tamoyillarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun yana ikkita tamoyil – kirish va xulosa kabilarni qo'shish talab etiladi.

Dastlab, bunda frazeologik birliklarni tasniflash katta ahamiyatga ega. Ularni turli xil belgilarga asoslanib tasniflash mumkin bo'lib, biz uch xil turdag'i frazeologizmni tasniflashini ko'rib chiqamiz. Ular:

Referent frazeologik birliklar: turli xil vaziyatlarni biron bir referent vositasida yoritib beradi: Quien madrugada Dios le ayuda-Erta turganni Xudo o'nglar ishini.

Strukturaviy frazeologik birliklar: grammatik mazmunni ifodalovchi hisoblanadi. Masalan: con referencia a-ga havolasi bilan; así que-shunday qilib, con tal modo-shu tarzda.

Kommunikativ frazeologik birliklar: mazkur turdag'i frazeologik birliklar muloqotning ma'lum bir vaziyatlarida q'llaniladi: creo que-o'ylaymanki.

Yuqorida sanab o'tilgan frazeologik birliklarning turlari ichida tadqiqotchilar uchun aynan referent frazeologik birliklar qiziqarli bo'lgan, chunki ular aynan maqol iboralarni o'z ichiga oladi.

Frazeologik birliklarni o'rgatishda bir qator muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalar mavjud:

1. frazeologik birliklarni so'zlardan farqlay olish lozim;

2. frazeologik birliklarning o'ziga xos shakllari (bir komponentli, bir nechta komponentli frazeologik birliklar va hokazo);

3. Frazeologik birlikning mazmuni (matnda frazeologik birlikning ma'nosini tushunish); Muloqotda so'z birikmalarini ikkita asosiy vazifani bajaradi: Nominativ va kommunikativ. Nominativ vazifani barcha iboralar bajaradi (predikativ iboralar bundan mustasno) - ular nomlash vositasi, narsa, harakat, hodisa, xususiyat nomidir. Bu kabi nominativ vazifada frazeologik birliklar ham ishlatalishi mumkin. Kommunikativ funksiya (xabar, savol, motivatsiya vazifasi) gaplar orqali amalga oshiriladi. Ular izchil fikrni ifodalash, fikr almashish va aloqa vositasidir. Kommunikativ funktsiyada sintaktik tuzilishga ko'ra gap shakliga ega bo'lgan maqol va matallar qo'llaniladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. La fraseologia del español: una propuesta de didactizacion para la clase de ele basada en los somatismos.

El autor: Marta Saracho Arnaiz

Universidad de Santiago de Compostela (ano 2015)

2. Introducción a la fraseología y su aplicación a la didáctica: corpus del poniente almeriense.

El autor: Juan Miguel Lopez Leon.

Universidad de Almería

3. La traducción de fraseologismos en el aula de Traducción General.

4. Aproximación a un léxico de fraseologismos.

El autor: Joselyn Corredor Tapia

5. <http://uza.uz/posts/264889>

6. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/22/uzbek-language/>